

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SUN'IY INTELLEKT, MATN TAHLILI VA FANLAR INTEGRATSIYASINING O'RNI

Sodiqova Dildora Shavkat qizi

O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Jumayeva Umida Abdurahim qizi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda sun'iy intellekt, matn tahlili va fanlar integratsiyasining o'rni yoritiladi. Tadqiqotda antroposentrik yondashuv asosida tilni o'rganish, elektron korpuslar va raqamli texnologiyalarning lingvistik tahlildagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida til kompetensiyasini rivojlantirish yo'llar hamda matn tilshunosligining nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Fanlararo integratsiya tilshunoslik rivojining muhim omili sifatida baholanadi. Maqola yakunida ushbu yo'nalishlarning istiqbollari va ularning til o'rganish jarayonidagi samaradorligi haqida xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tilshunoslik, matn tahlili, fanlar integratsiyasi, til kompetensiyasi, antroposentrizm, elektron korpus, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль искусственного интеллекта, анализа текста и междисциплинарной интеграции в современной лингвистике. В исследовании анализируется значение антропоцентрического подхода в изучении языка, а также роль электронных корпусов и цифровых технологий в лингвистическом анализе. Также рассматриваются пути развития языковой компетенции с помощью искусственного интеллекта, а также теоретические и практические аспекты текстовой лингвистики. Междисциплинарная интеграция оценивается как важный фактор развития лингвистики. В заключении представлены перспективы данных направлений и их эффективность в процессе изучения языка.

Ключевые слова: искусственный интеллект, лингвистика, анализ текста, междисциплинарная интеграция, языковая компетенция, антропоцентризм, электронный корпус, цифровые технологии.

Abstract. This article highlights the role of artificial intelligence, text analysis, and interdisciplinary integration in modern linguistics. The study analyzes the importance of the anthropocentric approach in language learning, as well as the role of electronic corpora and digital technologies in linguistic analysis. It also examines the ways of developing language competence through artificial intelligence and the theoretical and practical aspects of text linguistics. Interdisciplinary integration is considered an important factor in the development of linguistics. The article concludes with perspectives on these directions and their effectiveness in the language learning process.

Keywords: artificial intelligence, linguistics, text analysis, interdisciplinary integration, language competence, anthropocentrism, electronic corpus, digital technologies.

Kirish. XXI asrning birinchi choragida tilshunoslik an'anaviy tavsifiy fandan aniq va texnologik sohaga aylandi. Bugun til faqat muloqot vositasi emas, balki ulkan ma'lumotlar (Big Data) manbayi sifatida ko'rilmogda. Sun'iy intellektning rivojlanishi tilshunoslar oldiga yangi vazifalarni qo'yish bilan birga, matnlarni tahlil qilishning

milsiz imkoniyatlarini yaratdi. Ushbu yondashuv tilni inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bundan tashqari, jahon tilshunosligida elektron korpuslardan foydalanish, katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish imkoniyati yangi ilmiy natijalarga erishishga yordam beradi.

Tahlil va muhokama. Lingvistika sohasida SI ko'plab an'anaviy ishlarni avtomatlashtirishi va soddalashtirishi natijasida lingvistlar bajaradigan ishlarning katta qismini o'z zimmasiga oldi, albatta. Matnni avtomatik tarjima qilish. Avtomatik tarjima dasturlari, masalan, Google Translate, QTranslate 4.1., Lingoes 2.8.1., Microsoft Bing, Yandex Translate, Baidu Translate va DeepL oddiy matnni bir tildan boshqasiga osonlik bilan o'giradi. Bu dasturlar kontekstga asoslangan tarjimani taklif qilib, foydalanuv-chiga aniq natija olish imkonini beradi. Biroq murakkab matnning xato yoki noaniq tarjimasini berishi ham mumkin. Shuningdek, biror til bo'yicha uning ishlashi uchun ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, SI uni boshqa tillardan oladi.

Matn tilshunosligi zamonaviy lingvistikaning muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi. U matnning tuzilishi, mazmuni, bog'lanishi va kommunikativ vazifasini o'rganadi. Bugungi kunda ayniqsa internet matnlari, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar, reklama va ommaviy axborot vositalari matnlari keng o'rganilmoqda. Ushbu matnlar o'zining qisqaligi, tezkorligi va emotsional ifodalari bilan ajralib turadi.

Matn tahlili orqali til birliklarining real qo'llanilishi, uslubiy xususiyatlari va kommunikativ maqsadlari aniqlanadi. Bu esa tilni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Zamonaviy ilm-fan rivojida fanlar integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Tilshunoslik ham boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanib bormoqda. Jumladan, psixologiya, pedagogika, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt bilan integratsiya tilni o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, psixologiya til o'rganishdagi inson xulq-atvorini o'rganishga yordam bersa, pedagogika esa samarali o'qitish usullarini ishlab chiqadi. Axborot texnologiyalari esa bu jarayonni avtomatlashtirish imkonini beradi. Yosh tadqiqotchilar aynan shu integratsion yondashuv orqali yangi ilmiy g'oyalar va innovatsion yechimlarni taklif qilmoqdalar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslik sun'iy intellekt, matn tahlili va fanlar integratsiyasi asosida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu yo'nalishlar tilni o'rganish va o'qitish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda. Kelajakda ushbu sohalarda olib boriladigan tadqiqotlar yanada chuqurlashib, tilshunoslik fanining rivojiga katta hissa qo'shishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B., Hamroyeva Sh. Sun'iy intellekt: tilshunoslar endi nima qiladi? // "Ma'rifat" gazetasi, 2024-yil 18-dekabr.
2. Zamonaviy tilshunoslik asoslari – Toshkent, 2020
3. Sun'iy intellekt va ta'lim – Toshkent, 2022
4. Matn tilshunosligi nazariyasi – Toshkent, 2019
5. Internet lingvistikasi asoslari – Toshkent, 2025